

OCHIQ MULOQOT



“Ochiq muloqot”da dastlab Termiz shahar hokimining o‘rinbosari K.Ashurov tomonidan yoshlar siyosati sohasida joriy yilda amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusi yil rejalari to‘g‘risida axborot berildi.

Ochiq va samimiy ruhda o‘tkazilgan uchrashuv davomida yoshlarning qiziqishlari, muammo va takliflari tinglanib, ularning yechimlari bo‘yicha aniq qarorlar qabul qilindi hamda bildirilgan fikr va mulohazalar asosida muhim vazifalar belgilab olindi.



Tadbir davomida joriy yilda turli yutuqlarga va ijobiy ko'rsatkichlarga erishgan 8 nafar mahalla yoshlar yetakchilari, 40 nafarga yaqin iqtidorli va faol yoshlar tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Shuningdek, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning o'qish kontrakt to'lovlari uchun 120,0 mln. so'mlik vaucher hamda subsidiya asosida bir guruh yoshlarga asbob-uskuna va mehnat qurollari topshirildi.



Tadbir so'ngida iste'dodli yosh san'atkorlar tomonidan jonli ijro etilgan kuy-qo'shiqlar barcha ishtirokchilarga bir olam zavq bag'ishladi.